

## ТА'LIMDA STRATEGIK BOSHQARUVLAR ASOSI VA ZAMONAVIY METODIK TAVSIYALARNI TATBIQ ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

*Eshpo'latova Maftuna Akbar qizi*

*Navoiy davlat pedagogika instituti San'atshunoslik fakulteti*

*Ta'lim muassasalari boshqaruvi ta'lim yo'nalishi*

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada strategic boshqaruvlar asosi va zamonaviy metodik tavsiyalarni tatbiq etish va takomillashtirish haqida qisqacha so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, fan, soha, o'rganish, tutillayotgan o'rni, nazorat.

Hozirda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohotlarni amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketish muammolari ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi. Ta'lim va tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyotining asosidir. U ijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisiyligini hamda jamiyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu dastur maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarishning zamonaviy tizimi va uni boshqarishning asosiy tamoyillari, xususiyatlari Maktabgacha ta'limtomonidan maktabgacha ta'limni boshqarishning maqsadi, vazifalari, maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarishning vazifasi, boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatlari shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning prinsiplari va unga ilmiy- nazariy yondashuviga etibor qaratiladi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim hamiyat kasb etadi.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorida; maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratildi

. Bu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lib, bu bolalarni maktab ta’limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi. Xorijiy davlatlar ilg‘or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi mkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma’naviy- axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari sosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jamoasini boshqarish o‘z navbatida boshqaruv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni MTTning xodim va xodimlar guruhi tomonidan boshqa guruhlar faoliyatini samarali tashkil etish va birgalikdagi faoliyatni amalga oshirishning mexanizmlarini rivojlantirilib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotini hodimlarini boshqarishda, ta’lim tashkilotlari rahbarlari, pedagog xodimlar uchun pedagogik jamaoni boshqarishda bilimlarning ahamiyati, jamoada bo‘ladigan shaxslarning o‘zaro munosabatlarini tashkil etishiga muhim ilmiy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagogik jamoani boshqarish ilmiy asosida o‘rganiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda boshqa ohalari bilan uzviy bog‘likda, o‘zi to‘plagan ma’lumotlarni chuqur va ilmiy jihatdan oqilona tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv ilmining mazmun va mohiyati xodimlarni yoki jamoa mehnat faoliyatini boshqarish bilan ham bog‘likdir. Jamoa yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari murakkablashib boradi. Boshqaruv jarayonining murakkablashuvi boshqaruv ilmidan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ta’lim sifati muammolarini tadqiq qilish metodologiyasi uch xil tahlil darajasini: tadqiqotning umummetodologik, xususiy metodologik va aniq metodikalarini o‘z ichiga oladi. etodologiya, metodika va tadqiqot jarayonlari o‘rtasidagi tafovut obyektiv

avishda vujudga kelgan vositalar tizimini aks ettirai. Bunda gap haqqoniylikni o'rganish va obyektga yaqinlashishning turli darajalarida, ya'ni oliy (uningbarcha o'zaro aloqalaridagi jarayonni qamrab oluvchi), o'rta (ushbu tizimning a'lum bir tarixiy sharoitlarda ishlashini qamrab oluvchi) va tajriba-sinov darajalarida tahlil qilish usullarini chegaralash haqida boradi.

Umummetodologik daraja o'rganilayotgan muammoga umumiy ijtimoiy- falsafiy yondashuv bo'lib, u tadqiqot obyektini va predmetini, uning barcha jihatlarini, aloqalari va vositalarini har tomonlama o'rganishni talab qiladi. Dialektik metod predmetni rivojlanishda, harakatda va o'zgarishda o'rganilishini ko'zda tutadi. O'rganilayotgan jarayonlar va hodisalarni bilishga bunday yondashuv o'rganilayotgan tizim, hodisa yoki jarayonning qaror topish va rivojlanish qonuniyatlarini ochish hamda ularni isloh qilish chora-tadbirlarini soslash imkonini beradi. Dialektik metod ta'lim sifatini umumdavlat, jamoat va shaxs nuqtai nazaridan o'rib chiqadi, umumjahon qonuniyatlari va tamoyillarini e'tiborga oladi, ta'lim ohasidagi milliy madaniy-tarixiy va ma'naviy-axloqiy an'analar hamda qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Bundan tashqari, ta'lim sifati» ham umuman, ham ayrim jihatlarini bo'yicha doimiy «taftish» qilinadigan va to'g'rilab boriladigan dinamik hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Unda ta'lim sifatining muhim xususiyatlarini birlikda, o'zaro ta'sirda, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda tahlil qilish ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning xususiy metodologik darajasi ular asosida tadqiq qilinadigan metodologik tamoyillar yig'indisidan iborat. Bular tizimli-tarkibiy tahlil, kompleks, dasturiy-maqсадli, shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar, nazariya va amaliyot, ong va faoliyat birligi tamoyillari va boshqalardir. Tizimli-tarkibiy tahlil dastlab XVIII asrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi misolida ishlab chiqilgan. O'shanda tayyor metodologiya ishlab chiqilmagan edi, biroq u yaxlit o'rganishda tizimli-tarkibiy tahlil imkoniyatlari va stiqbollarini ko'rsatdi. Keyinchalik ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik muammolarni ishlab chiqishda ushbu tamoyil tobora keng qo'llanilmoqda.

Ta'limni tizim sifatida jamiyat tuzilmasidan ajralgan holda ko'rish imkonini beruvchi mezon uning aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Tizimli yondashuvda ko'zda tutilgan maqsadli tahlil ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va boshqa jarayonlar bilan aloqalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi. Ta'limning har bir tarkibiy qismi ham ana shu aloqaning muayyan ihatini aks ettirgan holda, aniq yo'nalishdagi maqsadga ega. Masalan, ta'lim sifati, ta'lim tizimining tarkibiy-mazmunli qismi sifatida davlat, jamiyat, shaxsning (ijtimoiy-shaxs buyurtmasi) maqsadli ko'rsatmalari va qadriyatlar bilan bog'liq yo'nalishlari, fan, texnika, madaniyat, texnologiyalarning taraqqiyot darajasi, shuningdek tizimning tegishli tarzda kadrlar hamda resurslar ta'minlanishi bilan belgilanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli farmoni.
5. Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y.
6. Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yilning 19-martida “Ta’lim tizimida pedagog kadrlar salohiyotini oshirish va takomillashtirish”ga bag‘ishlangan yig‘ilishi